

M.I. Bakunov

S.B. Biragov

М.И. Бакунов

С.Б. Бирагов

FIZIKADAN OLIMPIADA
MASALLALARI

ОЛИМПИАДНЫЕ
ЗАДАЧИ
ПО ФИЗИКЕ



УДК 530.77
ББК 28.3
Б 19

Бакунов М. И., Бирагов С. Б. Олимпиадные задачи по физике.
3-е изд. — М.: ФИЗМАТЛИТ, 2014. — 220 с. — ISBN 978-5-9221-1473-8.

Kitobda Nijniy Novgorod viloyati maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan viloyat, tuman va boshqa fizika olimpiadalari uchun mualliflar tomonidan tuzilgan 450 ta original masalalar mavjud. Shuningdek, viloyat terma jamoasini oliy olimpiadalarga tayyorlash uchun maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar, iqtidorli maktab o'quvchilarini erta saralash bo'yicha test topshiriqlari berilgan. Masalalarning katta qismi juda batafsil yechimlar bilan ta'minlangan, qolgan masalalarga ko'rsatmalar va javoblar berilgan.

Kitob fizika fanini asosiy fan sifatida tanlagan litsey o'quvchilari, maktab o'quvchilari, abituriyentlar, umumta'lim maktablarining fizika o'qituvchilari, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining umumiy fizika fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

M.I. Bakunov

S.B.Biragov

FIZIKADAN OLIMPIADA MASALLALARI

Husniddin Qoraboyev

tarjimasi


1. Kinematika	4
2. Dinamika. Saqlanish qonunlari.	22
3. STATIKA VA GIDROSTATIKA	52
4. GAZ QONUNLARI VA TERMODINAMIKA	63
5. ELEKTR VA MAGNETIZM	75
6. MEKANIKA VA ELEKTR TEBRANISHLAR	100
7. Ответы и решения	109-218

1. Kinematika


- 1.1. Mashiq qilayotgan sportchi eskalator zinas bo'ylab yuqoriga yugurmoqda. U harakatsiz eskalator ko'tarilishda N_0 ta zinani o'tdi, eskalator yuqoriga harakatlanayotganda esa 1.5 marta kam zina o'tdi. Eskalator yuqoriga ko'tarilayotganda, bu eskalator tushishda sportchi nechta zina o'tadi?
- 1.2. Odam harakatsiz eskalator ko'tarilishda N_0 ta zinani o'tadi. Agar eskalatorning tezligi v_1 , odamning eskalatorga nisbatan tezligi v_2 bo'lsa, u yuqoriga harakatlanayotgan eskalator ko'tarilishda nechta zina o'tadi?
- 1.3. Yo'l chetida doimiy tezlikda yugurayotgan sportchilar kolonnasi uzunligi L . Trener mashinada kolonnani ikki marta kata tezlikda quvib o'tmoqda. Har bir sportchi mashinaga to'g'ri kelganda ortga qayrilib, avalgi tezlikda yugurishda davom etadi. Oxirgi sportchi ortga qayrilganda, kolonna uzunligi qanday bo'ladi?
- 1.4. Magistral bo'ylab bir yo'nalishda ikkita sportchilar kolonnasi yugurmoqda: yuguruvchilar kolonnasi va velosipedchilar kolonnasi. Yuguruvchilar tezligi 20 km/h va ular oralig'i 20 m, velosipedchilar tezligi 40 km/h ular oralig'i 30 m. Shose bo'ylab harakatlanayotgan kuzatuvchining tezligi qanday bo'lganda, har safar velosipedchi kuzatuvchini qayerda quvib o'tgan bo'lsa, o'sha yerda kuzatuvchi yuguruvchini quvib o'tadi?
- 1.5. Magistral bo'ylab bir yo'nalishda ikkita sportchilar kolonnasi yugurmoqda: yuguruvchilar kolonnasi va velosipedchilar kolonnasi. Yuguruvchilar tezligi 6 m/s va ular oralig'i 10 m, velosipedchilar tezligi 10 m/s ular oralig'i 20 m. Ihtiyoriy bir yuguruvchini velosipedchilar qanday vaqt oralig'ida quvib o'tadi? Velosipedchi qanday vaqt intervalida bir yuguruvchini quvib o'tib, keyingisiga yetib boradi?
- 1.6. Sarcha aravachada uning oldingi va orqa devorlaridan absolyut elastik urilib qaytib dumalamoqda (rasmga qarang). Sharchaning aravachaga nisbatan tezligi u , aravachaning yerga nisbatan tezligi V ga teng. Yerga nisbatan sharcha siljishining vaqtga bog'liqlik grafigini chizing.

Ucha xolni ko'ring:


1) $u = 2V$, 2) $u = V$, 3) $u = V/2$.



- 1.7. A va B punktlardan bir-biriga qarab ikki velosipedchi bir vaqtda yo'lga chiqdi. Ular A punktadan 9 km masofada uchrashishdi va harakatlarini davom ettirishdi. Manzilga borib qaytishda ikkinchi marta B punktadan 6 km uzoqlikda uchrashishdi. A va B punktlar orasidagi masofani va velosipedchilar tezliklari nisbatini toping.
- 1.8. A va B punktlardan bir-biriga qarab ikki velosipedchi bir vaqtda yo'lga chiqdi. Ular A punktadan 8 km masofada uchrashishdi va harakatlarini davom ettirishdi. Manzilga borib qaytishda ikkinchi marta uchrashishadi. B punktadan ikkinchi uchrashish joyigacha bo'lgan masofa qaysi oraliqda bo'lishi mumkinligini aniqlang.
- 1.9. Oralaridagi masofa S ga teng bo'lgan A va B shaharlardan ikkita avtomobil bir-biriga tomon bir vaqtda yo'lga chiqdi. Birinchi avtomobil v_1 tezlikda, ikkinchisi esa v_2 tezlikda harakatlandi. Uchrashish vaqt momentidan boshlab birinchi avtomobil v_2 , ikkinchisi v_1 tezlikda harakatlandi (dastlabki yo'nalishda). Birinchi avtomobil B shaharga, ikkinchisi A shaharga yetib borish uchun qancha vaqt sarflagan?
- 1.10. Aylana shakildagi trek yo'l uzunligi 360 m. Ikki velosipedchi trek bo'ylab qarama-qarshi yo'nalishda $v_1 = 9 \text{ m/s}$ va $v_2 = 15 \text{ m/s}$ tezliklar bilan harakatlanmoqda. Trekning qandaydir joyida ular uchrashishdi. Qanday minimal vaqtdan so'ng ular shu joyda qayta uchrashishadi?
- 1.11. Ikki zarracha R radiusli aylananing bir nuqtasidan, bir vaqtda, bir xil tezlikda, biri aylana yoyi bo'ylab, ikkinchisi diametri bo'ylab harakat boshladi (rasmga qarang). Harakat davomida zarrachalar orasidagi masofaning maskimal qiymati qanday bo'ladi. Vaqt oralig'ini ular o'tgan yo'li aylana diametriga teng bo'lgan oraliq bilan chegaralaning.
- 1.12. Aylanma yo'lning markazidan $R/2$ masofada joylashgan A nuqtada joylashgan avtomobil A nuqta bilan bir diametrda joylashgan B nuqtaga borishi kerak (rasmga qarang). Avtomobil halqa ishida ixtiyoriy yo'nalishda to'g'ri chiziq bo'ylab v tezlikda, xalqa bo'ylab esa $2v$ tezlikda harakatlanishi ma'lum bo'lsa, u mashrutni qanday rejalashtirganda B nuqtaga minimal vaqtda yetib boradi? Bu vaqtni hisoblang.




1.11-masalaga




1.12-masalaga

- 1.13. Ikki avtomobilning o'zaro perpendikulyar yo'lda tekis harakatlangandagi bir-biridan uzoqlashish tezligi, huddi shunday tezliklar bilan bir yo'lda harakatlangandagi bir-biridan uzoqlashish tezligidan 5 marta katta. Avtomobilar tezliklari necha marta farq qiladi?
- 1.14. Ikki avtomobil tekis harakatlanib yaqinlashmoqda: Birinchi xolda bitta yo'lda, ikkinchi xolda o'zaro perpendikulyar kesishuvchi ikkita yo'llar bo'ylab avvalgi tezliklarida harakatlanib. Birinchi xoldagi yaqinlashish tezligining ikkinchi xoldagi yaqinlashish tezligiga nisbatini maksimal qiymati qanday bo'ladi?
- 1.15. Tekis harakatlanayotgan ikki avtomobilning o'zaro perpendikulyar yo'lda tekis harakatlangandagi bir-biridan uzoqlashish tezligi, huddi shunday tezliklar bilan bir yo'lda harakatlangandagi bir-biridan uzoqlashish tezligidan 5 marta katta. Qandaydir vaqt momentida sekinroq tezlikda harakatlanayotgan avtomobil chorahadan 60 m masofada joylashdi, 5 s o'tgandan so'ng esa 210 m. Tez harakatlanayotgan avtomobil bu vaqtda chorahadan qanday masofada joylashadi?
- 1.16. Yo'lni tozalayotgan buldozer V tezlikda harakatlanmoqda. Uning surgichi α burchakka burilgan, kesilgan muz bo'laklari unda sirpana yo'l chetiga chiqib boshlaydi. Muz bo'laklarini yo'lga perpendikulyar tezligini aniqlang. Muzning surgichga ishqalanishini xisobga olmang.
- 1.17. Gorizontal yo'nalishda V tezlikda uchayotgan samolyot L masofada aniqlangandan so'ng, zenit raketasi orqali nishonga olindi (rasmga qarang). Raketaning boshqaruv sistemasi shunday o'rnatilganki, uning tezlik vektori doim nishon tomon yo'naladi, uning tezligi esa shunday ortib boradiki bunda uning nishonga yaqinlashish tezligi o'zgarmas saqlanadi. Raketa start olgancha uning tezligi samolyot tezligiga tenglashdi. Raketa samolyotni zenit ustanovkasini ustida bo'lgan vaqt momentida urib tushirdi. Raketa start olgandan qancha vaqt o'tib samolyotni urib tushirgan? Raketaning tezligi vertikal yuqoriga yo'nalgan paytda qanday bo'lgan? Raketa va samolyotning nisbiy tezliklarining maksimal qiymati qanday bo'lgan?




1.16-masalaga




1.17-masalaga

- 1.18. Elektrichka vogzal yonidan to'xtamasdan 18 s da o'tib bo'ldi. Qarama-qarshi yo'nalishdan domiy tezlikda harakatlanayotgan boshqa bir elektrichka bu vogzal oldidan o'tish uchun 14 s vaqt sarfladi. Bu elektrichkalar bir-birini yonidan qancha vaqtda o'tadi? Elektrichkalar uzunligi bir xil va vogzal uzunligini yarmiga teng.
- 1.19. Tekis sekinlanuvchan harakat qilayotgan avtomobil ketma-ket kelgan 3 s va 2 s vaqt intervalida $AB = 51 \text{ m}$ va $BC = 24 \text{ m}$ bo'lgan yo'l kesimlarini o'tdi. Avtomobil C nuqtadan to'xtaguncha qancha yo'l yuradi?
- 1.20. Odam metro vagonidan tushdi va 4.5 km/h tezlikda harakat boshladi. 2 sekunddan so'ng poyezd tekis tezlanuvchan harakat boshladi va 6 s o'tgach poyezdning oxiri odam bilan tezlashdi. Bu vaqt momentida poyezd odam tezligidan 10 marta katta tezlikka erishdi. Odam tushgan vagon poyezd oxiridan qanday masofada joylashgan?
- 1.21. Ikki avtobus to'xtash bekati orasidagi masofa 400 m. Avtobus bekatdan qo'zg'alib, 36 km/h maksimal tezlikka erishguncha tezlashadi, song keyingi bekatgacha tormozlanadi. Bir bekatda ikkinchi bekatga borish uchun 1 minut vaqt sarflangan bo'lsa, avtobus 36 km/h tezlikda qancha yo'l yurgan. Avtobusning tezlashish va tormozlanish tezlanishlari (teng bo'lishi shart emas) doimiy.
- 1.22. Birinchi poyezd A stansiyadan 80 km/h tezlikda yo'lga chiqdi va 8 km tekis yurdi. So'ng tekis sekinlanuvchan harakatlanib, A stansiyadan 10 km masofada joylashgan B stansiyada to'xtadi. Birinchi poyezdda 3 minut keyin A stansiyadan ikkinchi poyezd yo'lga chiqqan. U tekis tezlanuvchan harakatlanib qandaydir tezlikka erishdi, so'ng tekis sekinlanuvchan harakat qilib B stansiyaga birinchi poyezddan 10 minut keyin yetib kelib to'xtadi. Ikki qo'shni stansiya orasida qaysi poyezd katta tezlikka erishgan? U tezlik qanday bo'lgan?
- 1.23. Ikki elektrichka A va B stansiyalardan bir-biriga tomon bir vaqtda yo'lga chiqdi. Biribchisi A dan B ga tomon yo'lning $\frac{1}{3}$ qismini tekis tezlanuvchan, keying $\frac{1}{3}$ qismini tekis va oxirgi $\frac{1}{3}$ qismini tekis sekinlanuvchan harakat qilib bosib o'tdi. Ikkinchi elektrichka B dan A ga tomon vaqtning $\frac{1}{3}$ qismida tekis tezlanuvchan, keying $\frac{1}{3}$ qismida tekis va oxirgi $\frac{1}{3}$ qismida tekis sekinlanuvchan harakat qilib bosib o'tdi. Elektrichklarning tekis harakatdagi tezligi bir xil va 70 km/h ga teng. Agar birinchi elektrichka ikkinchisiga nisbatan 2 minut ko'p harakatlangan bo'lsa, Stansiyalar orasidagi masofani aniqlang.

- 1.24. To'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan zarracha yo'lining ketma-ket kelgan S_1 va S_2 qismlarini mos ravishda t_1 va t_2 vaqtda o'tdi. Zarracha tezlanishini aniqlang.
- 1.25. Jism tinch xolatdan to'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat boshladi. Qandaydir vaqt momentida tekis tezlanuvchan harakat tekis sekinlanuvchan harakatga o'zgardi. O'tilgan yollar bir xil, o'rtacha tezliklar 1.5 marta farq qilsa, tezlashish va tormozlanish tezlanishlari nisbatini aniqlang.
- 1.26. Zarracha tinch xolatdan to'g'ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat boshladi. Qandaydir maksimal tezlikka erishgach, to'g'ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakat qilib toxtadi. Tormozlanish qismining uzunligi tezlashish qismi uzunligidan 2 marta katta. Tezlashish va tormozlanish tezlanishlari nisbatini aniqlang. Tezlashish va tormozlanish vaqtlari necha marta farq qiladi?
- 1.27. Zarracha tinch xolatdan to'g'ri chiziqli harakat boshladi va ketma-ket kelgan ikkita teng yo'l qismlarini har birini o'rish uchun 2 s dan vaqt sarfladi. Harakat davomida zarrachaning maksimal tezligi 20 m/s, yo'ning ikkala yarmidagi tezlanishlar o'zgarmas bo'lsa, u 4 s da qancha yo'l yurgan?
- 1.28. Jism $t = 0$ vaqt momentida kordinata boshidan x o'qi bo'ylab, $V_{0x} = V_0$ boshlang'ich tezlik bilan harakat boshladi. Jism tezlanishining vaqtga bog'liqlik grafigi rasmda keltirilgan. Ko'rsatilgan rasmda a_0 va t_1 lar ma'lum. Qanday t_2 vaqt momentida tezlanish "o'chirilganda", jism $x = 0$ nuqtaga $V_x = -V_0$ tezlikda yetib keladi?
- 1.29. Zarracha $t = 0$ vaqt momentida x o'qi bo'ylab boshlang'ich tezliksiz harakat boshlaydi. Tezlanishining vaqtga bog'liqlik grafigi $a_x(t)$ rasmda keltirilgan yarm aylana ko'rinishida. $t = 4$ s vaqt momentida tezlikning proyeksiyasi v_x ni aniqlang.




1.28-masalaga




1.29-masalaga

- 1.30. Rasmda jism tezligi V_x ning x kordinataga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Jism $x = 0$; 5 m; 10 m; 15 m; nuqtalarda joylashgan vaqt momentlaridagi tezlanishi a_x ni aniqlang.
- 1.31. O'zgarmas kuch ta'sirida harakatlanayotgan jism trayektoriyasi $y = 0.04 \cdot x^2$ (x, y – *matrlarda*) ko'rinishida va $x = 0$ nuqtadan 10 m/s tezlikda o'tdi. Bu nuqtadan o'tgandan 2 s dan so'ng jism tezligi qanday bo'ladi?
- 1.32. Zarracha $x = 0$ nuqtadan x o'qining musbat yo'nalishi bo'yicha harakat boshladi. Jism kordinatasi x va tezligi V_x harakat davomida $x = AV_x^2 + B$ tenlama bilan bog'landi, bunda $A = -2s^2/m$, $B=2$ m . Qancha vaqtdan so'ng zarracha $x = 0$ nuqtaga qaytadi
- 1.33. Tinch turgan ikki jism bir vaqtda tekis tezlanuvchan harakat boshladi. Birinchi jism tezlanishi ikkinchisnikidan 2 marta katta. Qandaydir vaqt momentida birinchi jism tezlanishi bir onda 2 marta kamaydi, ikkinchisini tezlanishi esa 2 marta ortdi. Tezlanishlarning yangi qiymatlari dastlabki qiymatlari davom etgan vaqt oralig'iga teng vaqt davomida saqlandi. Jismlarning o'tgan yo'llari necha marta farq qiladi?
- 1.34. Silliqlik doska gorizontga turli burchaklar ostida o'rnatiladi va har safar undan yuqoriga bir xil 5 m/s boshlang'ich tezlik bilan shayba turtib yuborilib, 2 s da o'tgan yo'li o'lchanadi. Hisob kitoblarga tayangan holda tajribada o'lchanadigan yo'lning minimal qiymatini oldindan ayting. Taxtaning qiyalik burchagi 0 dan 90° gacha o'zgartirish va shayba turtib yuborilgan nuqtadan quyiga o'tib ketishi mumkin deb hisoblang (taxtadan ajralmagan xolda).
- 1.35. Stol ustida yotgan taxta ustida 4 m/s boshlang'ich tezlik bilan brusok turtib yuborildi. Ishqalanish natijasida brusok $3 m/s^2$ tezlanish bilan tormozlandi, taxta esa $1 m/s^2$ tezlanish bilan qo'zg'aldi. Qandaydir vaqt momentida brusok va taxta tezliklari tenglashdi va bir xil $1 m/s^2$ tezlanish bilan sekinlasha boshladi. Brusok va taxtaning harakat boshlagandan to'liq to'xtaguncha stolga nisbatan ko'chishini toping.




1.30-masalaga




1.35-masalaga

- 1.36. Ikki zaracha bir nuqtadan, bir yo'nalishda, bir vaqtda harakat boshladi. Birinchi zarracha v_0 boshlang'ich tezlik va a_1 tezlanishga ega, ikkinchisi esa – boshlang'ich tezliksiz va a_2 tezlanishga ega, bunda $a_2 > a_1$. Birinchi zarracha ikkinchisidan qanday maksimal masofagacha uzoqlashadi? Harakat boshlangandan qancha vaqt o'tib ikkinchi zarracha birinchisini quvib yetadi?
- 1.37. x o'qining $x_1 = 0$ va $x_2 = L$ nuqtalarida joylashgan ikki jism $t = 0$ vaqt momentida bir-biriga tomon harakat boshladi. x_1 nuqtada joylashgan 1-jism v_0 boshlang'ich tezlik va $a_{1x} = -a$ tezlanish bilan start oldi. Ikkinchisi tekis harakatlandi. Ikkinchi jism tezligining qanday minimal qiymatida o'qdagi bir nuqtada uchrashadi? $L = v_0^2/a$ deb hisoblang.
- 1.38. x o'qining $x_1 = 0$ va $x_2 = L$ nuqtalarida joylashgan ikki jism $t = 0$ vaqt momentida bir-biriga tomon modullari teng boshlang'ich tezliklar bilan harakat boshladi: $V_{1x}(0) = V_0$, $V_{2x}(0) = -V_0$. Birinchi jism tekis harakatlandi, ikkinchisi esa $a_x = 4V_0^2/L$ doimiy tezlanish bilan harakatlandi. Oralaridagi masofaning qanday minimal qiymatida harakat davomida jismlar bir-biriga yetib keladi? Bu qaysi vaqt momentida sodir bo'ladi?
- 1.39. x o'qining bir nuqtasidan bir vaqtda ikki jism $V_{1x}(0) = V_0$, $V_{2x}(0) = -V_0$ ($V_0 > 0$) boshlang'ich tezliklar bilan harakat boshladi. Jismlarning tezlanishlari o'zgarmas va $a_{x1} = -a$, $a_{x2} = 2a$ ($a > 0$). Qancha vaqt o'tib ular bir-biridan maksimal uzoqlashadi va so'ng yaqinlasha boshlaydi? Bu masofa nimaga teng?
- 1.40. x o'qining bir nuqtasidan $t = 0$ va $t = \tau$ vaqt momentlarida ikki jism $V_{1x}(0) = V_0$, $V_{2x}(\tau) = -V_0$ ($V_0 > 0$) boshlang'ich tezliklar bilan harakat boshladi. Jismlarning tezlanishlari o'zgarmas va $a_{x1} = -a$, $a_{x2} = a$ ($a > 0$). τ ning qanday qiymatida jismlar to'qnashuvi eng kech sodir bo'ladi? Bu vaqtni toping.
- 1.41. Ikki zarracha bir vaqtda bir-biriga tomon, bir xil 2 m/s tezlik bilan harakat boshladi. Birinchi zarracha tekis, ikkinchi zarracha boshlang'ich tezligiga qarama-qarshi yo'nalgan 1 m/s^2 tezlanish bilan harakatlandi. Ular orasidagi masofaning qanday minimal qiymatida ular harakat davomida to'qnashmaydi?
- 1.42. Ikki zarracha $t = 0$ vaqt momentida x o'qi bo'ylab boshlang'ich tezliksiz harakat boshladi. Birinchisini tezlanishi doimiy, ikkinchisini tezlanishi o'zgarish qonuni rasmda keltirilgan. 3 s dan so'ng zarrachalar tezliklari tenglashdi. Birinchi zarracha tezlanishi qanday bo'lgan? Har bir jarrachaning ikkinchi sekundda va 3 s davomida o'tgan yo'lini aniqlang.

- 1.43. Ikki zarracha $t = 0$ vaqt momentida x o'qi bo'ylab harakat boshladi. Birinchi zarracha $x = 0$ nuqtadan musbat yo'nalish bo'ylab doimiy V tezlikda. Ikkinchi jism harakati $x = L$ nuqtadan boshlang'ich tezliksiz boshlanadi va bu zarrachaning tezlanishi o'zgarishi rasmda keltirilgan. a_0 va τ qanday qiymatida birinchi zarracha $t > 3\tau$ vaqt momentlarida ikkinchi zarrachani quvib yeta olmaydi va ular orasidagi masofa $L/2$ ga teng o'zgarmas saqlanadi?



1.42-masalaga



1.43-masalaga


- 1.44. Zarracha $t = 0$ vaqt momentida boshlang'ich tezliksiz doimiy a tezlanish bilan harakat boshlaydi. Vaqtning $\tau, 2\tau, 3\tau, \dots$ momentlarida, zarra tezlanishining moduli o'zgarmasdan, tezlanish vektorining yo'nalishi darhol qarama-qarshi yo'nalishda o'zgaradi. Birinchidan keyin to'g'ri chiziqli tekis harakatlanadigan ikkinchi zarracha, birinchi zarra karakat boshlagan nuqtadan $i \cdot 2\tau$ vaqtda o'tadi. Ikkinchi zarracha tezligining qanday minimal qiymatida birinchi zarrachani 5τ va 7τ vaqt oraliqlarida quvib yetadi?
- 1.45. Tosh erdan 20 m balandlikda joylashgan nuqtadan vertikal ravishda yuqoriga otildi. Agar u 40 m yo'l yurgan bo'lsa, qancha vaqt parvoz qilgan? Erkin tushish tezlashishi $g \approx 10 \text{ m/s}^2$.
- 1.46. Jism yerdan vertikal ravishda yuqoriga qarab otilganda, maksimal H balandlikka ko'tariladi. Ko'tarilish vaqtining yarmiga teng bo'lgan vaqt momentida jism yerdan qanday balandlikda bo'lgan? ($g=10 \text{ m/s}^2$).
- 1.47. Yerdan vertikal ravishda yuqoriga otilgan to'p ko'tarilishning oxirgi 5 metrini butun parvoz vaqtining uchdan bir qismida o'tadi. To'pni yerdan maksimal ko'tarilish balandligini toping.
- 1.48. Parvozning birinchi va uchinchi sekundlari oxirida yerdan vertikal ravishda otilgan jism tezligining qiymatlari bir xil edi. Jismning maksimal ko'tarish balandligi qancha?
- 1.49. Toshni er sirtidan qanday V_0 boshlang'ich tezlikda vertikal ravishda otilganda, yerga urilish monetnidan bir soniya oldin u o'z yo'lining uchdan ikki qismini bosib o'tadi?

- 1.50. Qadnaydir balandlikdan vertikal yurqoriga otilgan tosh 4 s uchgan va harakatining oxirgi sekundida butun yo'lining yarmini o'tgan bo'lsa, vertikal ravishda yuqoriga otilgan toshning maksimal ko'tarilish balandligi qancha? Havo qarshiligi hisobga olinmasin.
- 1.51. Yerdan H balandlikda joylashgan nuqtadan, birinchi jism boshlang'ich tezliksiz erkin tashlandi, ikkinchisi esa V_0 tezlik bilan kechikish bilan yuqoriga tik otildi. Bu kechikish qanday bo'lganda, parvoz paytida jismlar (jismlardan biri erga urilishidan oldin) maksimal masofaga uzoqlashadi? Bu masofa nimaga teng? $V_0 > \sqrt{2gH}$ va $V_0 < \sqrt{2gH}$ holatlarini ko'rib chiqing (g - tortishish tezlashishi).
- 1.52. H balandlikdan ikki jism τ vaqt intervali bilan, erga tushadi. Birinchi jism tezligining ikkinchisiga nisbatan vaqtga bog'liqligini grafigini tuzing. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin. Jismlarning yerga urilishi absolyut elastik deb hisoblang.
- 1.53. Bitta uyda uchta talaba jismning erkin tushish qonuniyatlarini o'rganmoqdalar. Ulardan ikkitasi 5- va 3-qavatlarida joylashgan bo'lib, bolkondan 7-qavatdagi uchinchi talaba tomonidan, boshlang'ich tezliksiz tashlab yuborilgan to'p ularning yonidan o'tib ketganda qo'llaridan to'plarni tashlab yuboradilar. Havoning qarshiligi e'tiborga olinmaganda to'plar qanday tartibda erga tushadi? Havoning qarshiligi erga urilish ketma-ketligiga ta'sir qiladimi?
- 1.54. Vertikal ravishda yuqoriga otilgan tosh oxirgi soniyada yo'lining yarmni o'tgan bo'lsa, toshning maksimal uchish vaqtini toping.
- 1.55. Jism vertikal yuqoriga otildi. Parvozning birinchi soniyasida jism o'tgan yo'l ikkinchi sekundda bosib o'tgan yo'ldan necha marta ko'p bo'lishi mumkin? Bunga qanday boshlang'ich tezlikda erishiladi? Parvoz vaqti kamida ikki sekund.
- 1.56. Yerdan ma'lum bir balandlikdan vertikal ravishda yuqoriga otilgan jism uchish vaqtini birinchi yarmida butun yo'lning to'rtidan birini bosib o'tdi. Jism ko'tarilgan maksimal balandlikni u otilgan balandlikka nisbatni toping.
- 1.57. Yer sirtidagi bir nuqtadan ikkita jism qandaydir vaqt intervali bilan vertikal yuqoriga otildi. Birinchi tananing boshlang'ich tezligi V_0 , ikkinchisi $\frac{2V_0}{3}$ edi va jismlar bir vaqtda erga tushdi. Jismlar orasidagi maksimal masofa qancha bo'lgan?
- 1.58. Gorizontol stol ustidan H balandlikda joylashgan nuqtadan birin ketin ikkita bir xil to'p tushadi. Birinchi to'p $H/2$ masofani bosib o'tganda, ikkinchisi tushishni boshlaydi. Stolga urilishni absolyut elastik deb hisoblab, to'plar to'qnashadigan


balandlikni toping. Agar birinchi to'qnashuv markaziy va absolyut elastik bo'lsa, to'plar yana qaysi balandlikda to'qnashadi?

- 1.59. Gorizonttal plastinka ustidan 0,45 m va 1,8 m balandlikda joylashgan ikkita shar $t = 0$ vaq momentida boshlang'ich tezliksiz tashlanadi. Plitaga sharlarning urilishi absolyut elsatik va havo qarshiligini e'tiborsiz qoldirib, nisbiy tezlik modulining (ya'ni, bitta sharning boshqasiga nisbatan tezligi) vaqtga bog'liqligini grafigini tuzing. Chizish $0 \leq t \leq 1, 2$ s vaqt oralig'ida amalga oshiriladi. Sharlar bir-biri bilan to'qnashmaydi va erkin tushish tezlanishi $g = 10 \text{ m/s}^2$ deb hisoblang.
- 1.60. Ikkita to'p bir vaqtning o'zida ikki marta farq qiladigan balandliklardan polga tashlanadi. Polga urilishlarni absolyut elastik deb hisobga olsak, to'plar uzoq vaqt davomida yurgan yo'llarning nisbatlarini toping (ko'p sonli sakrashdan keyin). Trayektoriyalar gorizonttal ravishda joylashtirilgan va harakat paytida to'plar bir-biri bilan to'qnashmaydi.
- 1.61. $t = 0$ momentida ikkita to'p gorizonttal poldan H balandlikdagi nuqtadan otiladi: biri $\sqrt{2gH}$ tezlik bilan pastga, boshqasi huddi shu tezlikda vertikal yuqoriga (g - tortishish tezlashishi). Traektoriyalar gorizonttal ravishda joylashtirilgan va to'plar harakat jarayonida bir-birlarini to'qnashmaydi. To'plar bosib o'tgan yo'llardagi farq qaysi vaqt mementlarida maksimal bo'ladi? To'plarining polga urilishlari absolyut elestik deb hisoblang.
- 1.62. Yerdan otilgan jismning kinetik energiyasi uchishning 1 soniyasida boshlang'ich kinetik energiyasi qiymatining $1/4$ qismiga teng minimal qiymatga erishdi. Jismning uchish uzoqligini toping. Havoning qarshiligini e'tiborsiz qoldiring.
- 1.63. Agar u uchish vaqti 2 s va maksimal ko'tarilish balandligi uchish uzoqligida teng bo'lsa, ufqqa burchak ostida otilgan jismning boshlang'ich tezligini toping.
- 1.64. Yerdan $t = 0$ vaqt momentida gorizontga α burchak ostida otilgan jism t_1 va t_2 vaqt momentlarida bir hil balandlikda bo'ldi. $t_2 - t_1$ vaqt oralig'idagi ko'chishni toping.
- 1.65. 10 m/s boshlang'ich tezlik bilan gorizontga burchak ostida otilgan jism 2 s uchdi va erga urish paytida 14 m/s tezlika erishdi. Havo qarshiligini e'tiborsiz qoldirib, jismning otilgan balandligini va yerdan ko'tarilgan maksimal balandligini toping. Erkin tushish tezlanishi 10 m/s^2 ga teng deb hisoblang.
- 1.66. Gorizontga α burchak ostida V_0 boshlang'ich tezlik bilan otilgan jism tezlik vektori uchish davomida qanday maksimal burchak tezlikka erishadi?

- 1.67. Yer sirtidan bir xil tezlikda ikki tosh otildi. Bunday holda, toshlarning uchish masofalari ham bir xil bo'ldi va uchish vaqtlari $\sqrt{3}$ marta farq qildi. Toshlar qanday burchaklarda otilgan?
- 1.68. Jism ufqqa turli burchaklarda ikki marta bir xil tezlikda otilgan. Ikkala holatda ham uchish uzoqligi 30 m ni tashkil etdi va dastlabki otishdagi uchish vaqti 3s ga teng bo'ldi. Ikkinchi otish uchun uchish vaqti qancha bo'ladi?
- 1.69. Tosh ufqqa turli burchaklarda bir xil boshlang'ich tezlikda erdan ikki marta otildi. Gorizontal uchish uzoqligi ikkala holda ham bir xil va maksimal ko'tarilish balandliklari yig'indisiga teng bo'ldi. Tosh qanday burchaklarda otilgan?
- 1.70. Minomyotdan ufqqa 75° burchak ostida o'q otildi. Parabolik traektoriya bo'ylab erkin uchayotgan mina, avval o'q otilgan joydan uzoqlashadi, keyin 10 sekund davomida yaqinlashadi va keyin yana uzoqlashadi. O'qning boshlang'ich tezligi qancha? Erkin tushish tezlanishini 10 m/s^2 ga teng deb hisoblang.
- 1.71. Jism Rasmda keltirilgan parabola bo'ylab ikki marta harakat qiladi: birinchi holatda faqat tortishish kuchi ta'siri ostida harakat qiladi, ikkinchi holda esa huddi shu trayektoriya bo'ylab doimiy V tezlik bilan harakat qiladi. Ikkala hol uchun ham yuqoridagi 1 nuqtada jism tezligi mos keladi (rasmga qarang). Jismning ikkinchi holda 1 va 2 nuqtalardagi tezlanishini toping (2 nuqtada tezlik vektori ufqqa 45° burchak ostida yo'nallgan). Erkin tushish tezlanishini ma'lum deb hisoblang.
- 1.72. Vertikal devordan L masofada granata portlashi natijasida barcha yo'nalishga bir xil V_0 tezlik bilan granata parchalari sochilladi (rasmga qarang). $V_0 = \sqrt{2gL}$ ga teng deb hisoblab, qancha vaqtdan so'ng "oskolka"lar devorga urila boshlashini, "oskolka"larning devorga urilish davomiyligini va ular devorga uriladigan maksimal balandlikni aniqlang.



1.71-masalaga




1.72-masalaga


1.73. Bir tosh H balandlikdan erkin tusha boshlagan vaqt momentida, ikkinchi tosh birinchisining traektoriyasidan masofa H masofada joylashgan er sirtidagi nuqtadan otildi (rasmga qarang). Erdan uloqtirilgan tosh qanday boshlang'ich tezlik bilan otilganda, vertikal vertikal tushayotgan tosh bilan to'qnashuvdan oldin minimal tezlikka ega bo'ladi?

1.74. Ikki jism bir nuqtadan, bir vaqtda, bir xil V_0 boshlang'ich tezlik bilan otildi. Birinchisini vertikal yuqoriga, ikkinchisini gorizontga ma'lum burchak ostida otildi. Bu burchak qanday bo'lganda, jismlar orasidagi masofa maksimal bo'ladi? Bu maksimal masofa qancha? Jismlar yerga noelastik uriladi deb hisoblang.

1.75. Ikki jism bir nuqtadan, bir vaqtda, bir xil boshlang'ich tezlik bilan otildi. Otilish paytida boshlang'ich tezlik vektorlari bir vertikal tekislikda yotadi va gorizont bilan bir xil burchak hosil qiladi (Rasmga qarang). Jismlar 2 s vaqt intervali bilan, bir-biridan 20 m masofada yerga urildi. Boshlang'ich tezlik vektorlari orasidagi burchakni toping. $g = 10\text{ m/s}^2$ deb hisoblang.



1.73-masalaga




1.75-masalaga

1.76. Yer sirtidan H balandlikda granata portlashi natijasida “oskolka”lar barcha yo'nalishda bir xil tezlikda sochiladi. Gorizont otilgan bo'lakchalar portlashning episentiridan (granata portlagan nuqtaning yer sirtidagi proyeksidasidan) H masofada yerga urildi. Yana qanday burchak ostida sochilgan bo'lakchalar episentirdan huddi shunday H masofada yerga uriladi?


1.77. Gorizont bilan α burchak hosil qiluvchi tog' yon bag'rida granata portlashi natijasida “oskolka”lar barcha yo'nalishda bir xil V_0 tezlikda sochiladi. Qancha vaqtdan so'ng oxirgi bo'lakcha yerga (tog' yon bag'riga) tushadi?

1.78. Gorizont bilan α burchak hosil qiluvchi tekislikka paralel koptok otildi. Urilish momentida koptok tezligi gorizont yo'nalgan va V ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, qancha vaqtdan so'ng koptok tekislikka urilgan?

- 1.79. Gorizont bilan α burchak hosil qiluvchi tog' yon bag'ridan, bir nuqtadan bir xil V_0 boshlang'ich tezlik bilan ikkita tosh bir vaqtda otildi. Toshlar tog' yon bag'riga bir vaqtda urildi-toshlardan biri otilish nuqtasiga tushdi. Ikkinchi tosh otilish nuqtasidan qanday maksimal masofaga tushishi mumkin?
- 1.80. Gorizont bilan 30° burchak hosil qiluvchi tog' yon bag'ridan, bir nuqtadan bir xil 20 m/s boshlang'ich tezlik bilan ikkita tosh bir vaqtda otildi. Ulardan biri gorizontga qandaydir burchak ostida yuqoriga, ikkinchisi esa birinчисiga vertikalga nisbatan simmetrik otildi. Toshlarning tog' yon bag'irlariga urilish nuqtalari orasidagi masofaning maksimal qiymati qancha bo'lishi mumkin? 2) Gorizont bilan 30° burchak hosil qiluvchi tog' yon bag'ridan, bir nuqtadan bir xil 20 m/s boshlang'ich tezlik bilan ikkita tosh bir vaqtda otildi. Ulardan biri qiyalikka qandaydir burchak ostida yuqoriga, ikkinchisi esa huddi shunday burchak ostida pastga otildi. Toshlarning tog' yon bag'irlariga urilish nuqtalari orasidagi masofaning maksimal qiymati qancha bo'lishi mumkin?
- 1.81. Kichik sharcha R radiusli silliq sfera ichida, O sfera markazi orqali o'tuvchi vertikal o'qqa nisbatan simmetrik bo'lgan A va B nuqtalarga absolyut elastik urilib-qaytib, harakatni takrorlaydi (rasmga qarang). Agar harakat davomida uning trayektoriyasi O nuqta orqali o'tsa, sharchaning harakat davomidagi minimal tezligini aniqlang. Sharchaning harakat trayektoriyasini chizing va trayektoriyasining eng yuqori nuqtasini egrilik radiusini toping.
- 1.82. R radiusli sfera markazidagi portlash natijasida "oskolka"lar barcha yo'nalishlarga bir xil $\sqrt{0.5gR}$ tezlikda simmetrik sochildi (rasmga qarang). "Oskolka"lar urilladigan sfera segmenti sirtini chegaralovchi qutbiy burchakni aniqlang.




1.81-masalaga




1.82-masalaga

1.83. Zarracha X, Y tekislikda harakatlanadi. Uning Y o'qi bo'ylab yo'nalgan tezligi doimiy 3 m/s ga teng, X o'qidagi tezligi esa o'zgaradi. Tezligining X o'qidagi proyeksiyasining boshlang'ich qiymati $V_{0x} = 0$, tezlanish proyeksiyasi a_x ni vaqtga bog'liqligi rasmda keltirilgan. Zarrachaning maksimal tezligini aniqlang.




1.83-masalaga

1.84. Zarracha X, Y tekislikda harakatlanadi. Zarracha tezligining proyeksiyalari $V_x(t)$ va $V_y(t)$ keltirilgan grafikdan foydalanib, uning 4 s da o'tgan yo'lini aniqlang.



1.84-masalaga


1.85. Zarra x, y tekislikda davriy harakatni amalga oshiradi. Uning tezligining x, y o'qi bo'yicha proektsiyalari vaqtga bog'liq rasmlarda ko'rsatilgandek o'zgaradi. Zarrachaning traektoriyasini chizing. Zarrachaning $t = T/2$ vaqt momentidagi traektoriyaning egrilik radiusini toping. $t = 0$ da zarracha kordinata boshida joylashgan.




1.85-masalaga

1.86. Yuqoridagi 1.85 masala uchun trayektoriyaning maksimal egrilik radiusini aniqlang.

1.87. Moddiy nuqta R radiusli yarmaylanani doimiy tangensial tezlanish bilan o'tdi va uning tezligi V_0 van $2V_0$ gacha ortdi. Kordinata o'qlarini rasmda ko'rsatilgandek yo'naltirib, a_x , a_y , V_x , V_y larning vaqt bo'yicha o'rtacha qiymatlarini aniqlang.




1.87-masalaga




1.88-masalaga

1.89. Zarracha aylana bo'ylab harakatlanib, $2t_0$ vaqtda to'liq aylandi. Zarracha tezligining o'zgarish grafigi rasmda keltirilgan. Zarracha o'tgan yo'lining vaqtga bog'liqlik grafigini chizing. Aylananing birinchi choragini qancha vaqt davomida o'tganini aniqlang. X o'qini boshlang'ich nuqtadan diametr bo'ylab yo'naltirib, t_0 vaqtdagi a_x va v_x larni o'rtacha qiymatini aniqlang.



1.89-masalaga



1.90-masalaga


1.91. Dekart kordinatalar sistemasida jimning kordinatalari quyidagicha o'zgarmogda: $x(t) = A \cos \omega t$, $y(t) = A \sin \omega t$, $z(t) = A \omega t$, bu yerda A va ω - musbat o'zgarmaslar. Zarracha t_0 vaqtda qancha yo'l yuradi?

1.92. Dekart kordinatalar sistemasida jimning kordinatalari quyidagicha o'zgarmoqda:
 $x(t) = A \cos \omega t$, $y(t) = A \sin \omega t$, $z(t) = A \omega t (1 - \frac{\omega t}{2})$, bu yerda A va ω - musbat o'zgarmaslar. Zarracha trayektoriyasining minimal egrilik radiusini toping.

1.93. Ipga osilgan sharcha osilish nuqtasi bilan bir hil satxgacha og'ib (ip gorizontol holatgacha) vertikal tekislikda tebranmoqda. Sharcha to'la tezlanishinig minimal qiymati nimaga teng. Havoning qarshilik kuchini hisobga olmang. Erkin tushish tezlanishi g ma'lum.

1.94. Ipga osilgan sharcha muvozanat vaziyatidan maksimal 60° og'gan holda vertikal tekislikda tebranmoqda. Sharcha to'la tezlanishinig minimal qiymati nimaga teng. Havoning qarshilik kuchini hisobga olmang. Erkin tushish tezlanishi g ma'lum.

1.95. L uzunlikdagi gorizontol taxta ustida brusok yotibdi. $t = 0$ vaqt momentida doska tezligini proyeksiyasi V_x vaqtga bog'liqligi rasmda keltirilgandek harakat boshladi (X o'qi doska bo'ylab yo'nalgan). Taxtaning harakati tufayli brusok sirpanib tushib ketmaydigan, brusokning taxtadagi boshlang'ich xolati soxasini ko'rsating. Quyidagi shartlarni ko'rib chiqing: $V_0 \tau = \frac{L}{4}$ va $\tau = \frac{V_0}{\mu g}$, bu yerda μ - brusok va taxta orasidagi ishqalanish koeffitsienti.



1.95-masalaga

1.96. Gorizontol sirtida yotrag rezina shaybaga zarb berilganda u 2 s da 6 m yo'l otib to'xtadi. Birinchi zabra berilgandan τ vaqt o'tib shaybaga yana huddi shunday, lekin avvalgi yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalishda zarba berildi. S ning τ ga bog'liqlik grafigini chizing, buyerda S - boshlang'ich nuqtadan shayba to'liq to'xtaguncha bo'lgan masofa.

1.97. Silliq gorizontol stolda qandaydir tezlik bilan sirpanayotgan shayba o'z yo'lida bir xil kenglikdagi, shaybaning tezlik vektoriga perpendikulyar bo'lgan ikkita g'adir-budur yo'ldan o'tadi. Birinchi yo'ldagi ishqalanish koeffitsienti ikkinchisidan 2 marta kichik. Agar shayba ikkinchi yo'ldan o'tib to'liq to'xtagan bo'lsa, shaybaning yo'llarni o'tish vaqtlari qanday monosabatda?

1.98. Silliq gorizontol stolda qandaydir tezlik bilan sirpanayotgan shayba o'z yo'lida bir xil kenglikdagi, shaybaning tezlik vektoriga perpendikulyar bo'lgan ikkita g'adir-budur yo'ldan o'tadi. Birinchi yo'ldagi ishqalanish koeffitsienti ikkinchisidan 2 marta kichik. Shayba ikkinchi yo'ldan o'tib to'liq toxtaydi. Agar shaybaga ortga tomon huddi shunday boshlang'ich tezlik berilsa, g'adir-budur qismlarini o'tish vaqti necha marta o'zgaradi?

1.99. Bir xil uzunlikdagi ikkita taxta (biri dag'al, ikkinchisi silliq) uchlari bilan mahkam ulangan va gorizontga ma'lum burchak ostida qiyalatilgan (rasmga qarang). Brusok taxtaning yuqori qismida joylashgan bo'lib, silliq qismda dag'al qismdagidan ikki marta katta tezlanish bilan sirpanadi. Brusokning ikkita xoldagi sirpanib tushish vaqtlari nisbatini aniqlang: birinchi holda tepada silliq qism, ikkinchisida dag'al. Taxtaning qiyalik burchagi ikkala xolda ham bir xil.




1.99-masalaga

1.100. Qiya tekislik bo'ylab yuqoriga turtib yuborilgan kubik boshlang'ich tezlikning yarmiga teng tezlikda boshlang'ich nuqtaga qaytdi. Agar yuqoriga va pastga sirpanish vaqtlari yig'indisi 3 s ga teng bo'lsa, kubikni ko'tarish vaqti qancha?


1.101. Rezina shayba asosidagi burchagi α bo'lgan qiya tekislikka qo'yildi. Shayba sirpana boshladi va pastga tomon qandaydir yo'l o'tib, qiya tekislikka perpendikulyar bo'lgan to'siqqa absolyut elastik urildi. Shayba to'qnashuvdan so'ng yuqoriga tomon harakatdan to'xtaguncha pastga tomon yurgan yo'lining yarmiga teng masofa o'tdi. Tekislik va shayba orasidagi ishqalanish koeffitsientini aniqlang.

1.102. Qiya ponaning yog'i gorizont bilan 30° burchak hosil qiladi. Bu yog'ga paralel, pona qirrasiga 60° burchak ostida koptok otildi (rasmga qarang). Ponaning qiya yog'iga urilish momentida koptokning tezligi V ga teng va gorizont yo'nalgan bo'lsa, uning uchish vaqtini toping.

1.103. Bir uchi halqaga mahkamlangan, blok orqali tashlangan ipga yuk osilgan. Halqa bkoldan h masofa pastda joylashgan gorizontol sterjenda doimiy V tezlikda sirpanadi (rasmga qarang). Ip va sterjen o'zaro α burchak hosil qilgan vaqt momentidagi yukning tezlanishini aniqlang.




1.102-masalaga




1.103-masalaga

- 1.104. Asosidagi burchagi α bo'lgan massiv qiya tekislik gorizontal yo'nalishda V tezlikda hahakatlanmoqda (rasmga qarang). Qiyalik boshidan kichik jism ishqalanishsiz sirpana boshlaydi. U qiyalik etagidagi to'siqqa absolyut elastik urilib, pastga-yuqoriga harakatini takrorlaydi. Jismni yerga nisbatan trayektoriyasini chizing va trayektoriyasining eng yuqori nuqtasini egrilik radiusini toping.
- 1.105. Yuqoridagi 1.104-masala uchun jism trayektoriyasining minimal egrilik radiusini aniqlang. $\sqrt{2gh} > V\cos\alpha$ va $\sqrt{2gh} < V\cos\alpha$ bo'lgan hollarni qarab chiqing (h-qiyalik balandligi, g-erkin tushish tezlanishi).
- 1.106. Gorizontga 45° burchak ostida harakatlanayotgan eskalatorda o'tirgan qurbaqa uning oldinda eskalator lentasidan H balandlikda turgan chivinni payqadi (rasmga qarang). Chivinni yeyish uchun qurbaqa lentaga nisbatan qanday minimal tezlikda sakrashi kerak? Eskalator lentasining tezligi $V = 2\sqrt{gH}$ bo'lsa, sakrash nuqtasidan chivingacha bo'lgan masofa qanday bo'lishi kerak?
- 1.107. G'ildirak gorizontal tekislikda sirpanmasdan aylanadi; g'ildirak markazining tezlanishi a_0 ga teng. Pastki nuqtaning tezlanishi markazining tezlanishi a_0 ga teng bo'lgan vaqt momentida g'ildirakning yuqori nuqtasining tezlanishini toping.
- 1.108. R radiusli disk sirg'anmasdan dumalay boshlaydi, bunda disk markazining tezlanishi doimiy qoladi. Diskning markazi S masofaga siljigan vaqtda nol tezlanishga ega bo'lgan nuqtani toping. $S = 0$, $S = R/2$ bo'lgan hususiy holatlarini ham ko'rib chiqing.



1.104-masalaga




1.106-masalaga


- 1.109. V tezlikda harakatlanayotgan transportyor lentasida turgan qo'ng'izcha $V/2$ tezlikda R radiusli aylana bo'ylab yugurmoqda (lentaga nisbatan). Qo'ng'izchaning harakatsiz sanoq sistemasidagi minimal va maksimal tezliklarini toping. Qo'ng'izcha harakatsiz sanoq sistemasiga nisbatan minimal tezlikdan maksimal tezlikka erishguncha bo'lgan vaqt oralig'ida qanchaga ko'chadi. Qo'ng'izchaning harakatsiz sanoq sistenasidagi tezlik vektori va lentaning harakat yo'nalishi orasidagi burchakning maksimal qiymati qanday bo'ladi? Qo'ng'izchaning lentadagi trayektoriyasidan harakatsiz sanoq sistemasiga nisbatan faqat tangensial tezlanishga ega bo'ladigan nuqtalarni ko'rsating.

2. Dinamika. Saqlanish qonunlari.

- 2.1. Masasi 10 kg bo'lgan jism gorizontaal tekislikda tinch turibdi. Jism va sirt orasidagi ishqalanish koefitsenti 0.1 ga teng. Jismga $t = 0$ vaqt momentidan boshlab gorizontaal qo'yilgan kuchning vaqtga bog'lanish grafigi keltirilgan. Quyidagi vaqt momentlaridagi jism tezligini aniqlang: $t=5$ s, 10 s, 15 s. Erkin tushish tezlanishi $g = 10 \text{ m/s}^2$ deb hisoblang.
- 2.2. Massasi m bo'lgan zarracha shunday harakat qiladiki, bunda uning kordinatalari quyidagicha ko'rishishda o'zgaradi:
 $x(t) = A \cos \omega t$; $y(t) = A \sin \omega t$; $z(t) = 2A \omega t$. Zarrachaga ta'sir etuvchi natijaviy kuchni va t vaqtda o'tgan yo'lini aniqlang. A va ω ma'lum kattaliklar.
- 2.3. Massasi m bo'lgan, harakatsiz zarrachaga $t = 0$ vaqt momentida kuch ta'sir qila boshlaydi. Kuch vektori ochilish burchagi 45° bo'lgan konus hosil qilib bir tekis aylanadi, moduli F ga teng va doimiy (rasmga qarang). F vektorining konus bo'ylab aylanish davri T . Zarrachaning $t = T / 2$ vaqt momentidagi ko'chishini toping.




2.1-masalaga




2.3-masalaga

- 2.4. Massasi 1 kg bo'lgan jism huddi shunday massali ponaning silliq sirti bo'ylab sirg'anadi (rasmga qarang). Pona asosidagi burchak 45° , pona va gorizontaal stol orasidagi ishqalanish koeffitsienti 0,1 ga teng. Ponani harakatsiz ushlab turish uchun zarur bo'lgan F kuchning minimal qiymati qancha?




2.4-masalaga

- 2.5. Gorizontal stol ustida harakatsiz yotgan, massasi $2m$ bo'lgan ponaning silliq qiya sirti bo'ylab massasi m bo'lgan kub sirpana boshlaydi. Ponaning asosidagi burchak α ga teng. Stol va pona orasidagi ishqalanish koeffitsientining qanday qiymatida pona tinch holatda qoladi?
- 2.6. Silliq gorizontal stol ustida asosining burchagi 30° bo'lgan m massali pona mavjud. Xuddi shunday massali brusok ponaning qiya sirti bo'ylab siljiydi va uning stolga nisbatan tezligi V_0 ga teng va 60° burchak ostida yo'naladi (rasmga qarang). Sistema impulsining moduli va yo'nalishini hamda brusok va pona orasidagi ishqalanish kuchi toping.
- 2.7. Silliq gorizontal stolda burchagi α bo'lgan pona joylashgan. Ponaning qiya sirti bo'ylab brusok sirpanadi va uning stolga nisbatan tezligi vertikal yo'naltirilgan va V_0 ga teng. Pona tezligini va brusok va pona orasidagi ishqalanish koeffitsientini toping.
- 2.8. Asosidagi burchagi 30° bo'lgan pona ustidagi m massali kubcha unga $mg/2$ kuch bilan bosishi uchun gorizontal yo'nalishda qanday a_0 tezlanish bilan harakat qilishi kerak (rasmga qarang), (g - tushish tezlanishi)? Kubcha va pona orasida ishqalanish yo'q.




2.6-masalaga




2.8-masalaga

- 2.9. Massasi m bo'lgan shayba R radiusli silliq simli halqaga kiydirilgan, halqa tekisligi gorizontga 30° burchak ostida joylashgan. Shayba halqaning yuqori nuqtasidan boshlang'ich tezliksiz sirpana boshlagan bo'lsa, shaybaga eng quyi vaziyatdan o'tishida halqa tomonidan ta'sir qiluvchi kuchni aniqlang.
- 2.10. Massasi m bo'lgan shayba gorizontal joylashgan R radiusli qo'zg'almas qattiq halqaga kiydirilgan. Qandaydir vaqt momentida shaybaga v_0 tezlik berildi. Ikki vaqt momentida halqa tomondan shaybaga ta'sir qiluvchi kuchni toping: harakat boshlangan va to'xtashdan oldin. Shayba va halqa orasidagi ishqalanish koeffitsienti μ ga teng.

- 2.11. L uzunlikdagi ipga osilgan sharcha ipning gorizontol holatigacha og'iriladi va boshlang'ich tezliksiz qo'yib yuboriladi. Ip bardosh bera oladigan maksimal taranglik kuchi sharchaga ta'sir qiluvchi ogirlik kuchiga teng. Ipni uzgandan keyin sharning parabola bo'ylab harakat qilish vaqti dastlabki vertikal holatda ipni kesib yuborilgandagi erkin tushish vaqti bilan bir xil bo'lishi uchun osilish nuqtasi poldan qanday balandlikda bo'lishi kerak?
- 2.12. Massasi M va radiusi R bo'lgan silliq shar silliq gorizontol stol joylashgan. Massasi m bo'lgan kichik jism sharning yuqori nuqtadidan erkin siljiy boshlaydi. Jism va sharning massalari nisbati m/M ning qanday qiymatida jism $7R/4$ balandlikda shardan ajraladi?
- 2.13. Kichik yukcha R radiusli vaznsiz, qattiq halqaga biriktirilgan. Halqa rasmda ko'rsatilgan holatda ushlab turiladi. Halqa bo'shatilgandan so'ng, yuk o'zining dastlabki vaziyatidan qanday masofada gorizontol tekislikka tegadi? Ishqalanish yo'q.
- 2.14. Asosdagi burchagi α bo'lgan silliq pona va unga h balandlikda ip bilan biriktirilgan kub gorizontol sirt bo'ylab V tezlikda harakatlanadi (rasmga qarang). Qandaydiy vaqt momentida ip yoqib yuborildi pona esa avvalgi tezlikda harakatini davom ettirdi. Ip uzilgandan qancha vaqt o'tib kub gorizontol sirtga uriladi? Kub gorizontol sirtga vertikal urilishi uchun ponaning tezligi V qanday bo'lishi kerak?




2.13-masalaga




2.14-masalaga

- 2.15. Asosdagi burchagi α bo'lgan silliq pona va unga h balandlikda ip bilan biriktirilgan kubik gorizontol sirt bo'ylab V tezlikda harakatlanadi (2.14 masala rasmiga qarang). Qandaydiy vaqt momentida ip yoqib yuborildi pona esa avvalgi tezlikda harakatini davom ettirdi. Kubikning gorizontol sirtidan boshlang'ich balandligining qanday qiymatida, keyingi harakat jarayonida parabolik traektoriyaning uchi orqali o'tadi? Trayektoriyaning uchida egrilik radiusi nimaga teng?
- 2.16. Silliq gorizontol sirtida joylashgan ponaning silliq sirti bo'ylab kubikka V_0 tezlik berildi (rasmga qarang). Ponaning asosdagi burchagi α , pona va kubikning massalari teng. Qancha vaqtdan so'ng kubik pona sirtidagi boshlang'ich vaziyatiga qaytadi?




2.16-masalaga




2.19-masalaga

- 2.17. Silliq gorizontal sirtda joylashgan ponaning silliq sirti bo'ylab kubik V_0 tezlik bilan turtib yuborildi (2.16 masala rasmiga qarang). Ponaning asosdagi burchagi α , pona va kubikning massalari teng. Kubik ponaning cho'qqisiga yetib chiqmaydi deb hisoblab, uning boshlang'ich balandligiga qaytgandagi tezligini aniqlang.
- 2.18. Silliq gorizontal sirtda joylashgan ponaning silliq sirti bo'ylab kubik V_0 tezlik bilan turtib yuborildi (2.16 masala rasmiga qarang). Ponaning asosdagi burchagi α , pona va kubikning massalari teng. Harakatsiz sanoq sistemasiga nisbatan kub trayektoriyasining yuqori nuqtadagi egrilik radiusini toping. Kubik ponaning cho'qqisiga yetib chiqmaydi deb hisoblang.
- 2.19. Silliq gorizontal sirtda joylashgan ponaning silliq sirti bo'ylab kubik V_0 tezlik bilan turtib yuborildi (rasmga qarang). Ponaning asosdagi burchagi 45° , pona va kubikning massalari teng. Harakatsiz sanoq sistemasiga nisbatan kub trayektoriyasining minimal egrilik radiusini toping. Kubik ponaning cho'qqisiga yetib chiqmaydi deb hisoblang.
- 2.20. Kubchaga silliq ponaning sirti bo'ylab yuqoriga yo'nalgan V_0 tezlik berildi (rasmga qarang). Ponaning asosdagi burchagi 30° , pona va kubik massalari teng, Pona va gorizontal sirt orasida ishqalanish yo'q. Kubikning tezligi pona sirti bo'ylab sirpanish jarayonida qanday minimal qiymatgacha kamayadi?
- 2.21. Silliq gorizontal sirtda joylashgan ponaning silliq sirti bo'ylab kubik turtib yuborildi (rasmiga qarang). Bunda kubik ponaning cho'qqisidan o'tib, undan ajraldi. Ponaning balandligi H , asosdagi burchagi 30° , pona va kubikning massalari teng. Kubikka qanday boshlang'ich tezlik berilganda, pona maksimal tezlikka erishadi? Bu maksimal tezlik qanday?




2.20-masalaga




2.21-masalaga

2.22. Uncha katta bo'lmagan jismning asosidagi burchagi 45° bo'lgan ponaning silliq sirti bo'ylab uning asosigacha sirpanib tushadi. Sirpanib tushish vaqti harakatsiz ponada sirpanib tushish vaqtidan ikki marta katta bo'lishi uchun pona gorizontal yo'nalishda qanday tezlanish bilan harakatlanishi kerak?




2.22-masalaga




2.23-masalaga

2.24. Silliq gorizontal stolda jiylashgan ponaning silliq sirtiga brusok qo'yildi va ikkala jismga gorizontal yo'nalgan V_0 tezlik berildi (rasmga qarang). Ponaning asosdagi burchagi α , pona va kubikning massalari teng. Pona to'xtagan vaqt momentidagi brusok trayektoriyasining egrilik radiusini toping (Yer bilan bo'glangan sanoq sistemaga nisbatan).

2.25. Kichik shayba asosdagi burchagi α bo'lgan harakatsiz ponaning qiya yog'i bo'ylab otiladi. Shaybaning boshlang'ich tezlik vektori V_0 pona qirrasiga β burchak ostida yo'nalgan (rasmga qarang). Shayba va pona sirti orasidagi ishqalanish koeffisienti $\mu = \tan \alpha$ ga teng bo'lsa, shayba trayektoriyasining yuqori nuqtasidagi egrilik radiusini aniqlang.




2.24-masalaga




2.25-masalaga

2.26. m massali kichik kubik huddi shunday massali, gorizontal silliq sirtida tinch turgan pona sirti bo'ylab otildi. Kubikning boshlang'ich tezligi V_0 ponaning qirrasiga 45° burchak ostida yo'nalgan, ponaning asosidagi burchagi ham 45° ga teng (rasmga qarang). Trayektoriyaning eng yuqori nuqtasida kubikning tezligi va unga pona tomonidan ta'sir qiluvchi reaksiya kuchini aniqlang. Qancha vaqtdan so'ng kubik boshlang'ich satxiga qaytadi? Pona faqat qirrasiga perpendikulyar yo'nalishda ilgarilanma harakat qila oladi deb hisoblang.




2.26-masalaga




2.27-masalaga

2.28. Asosidagi burchaklari α va β bo'lgan vaznsiz pona silliq gorizontal stolda joylashgan (rasmga qarang). Ponaning yuqori qismidan bir vaqtning o'zida ikkita kichik jism ishqalanishsiz tusha boshlaydi. Ushbu jismlar massalarining (m_2/m_1) qanday nisbatida ular stol sirtiga bir vaqtda etib boradilar?




2.28-masalaga




2.29-masalaga

2.30. Bir xil zaryadlangan uchta sharcha bir xil uzunlikdagi iplar yordamida bog'langan va gorizontaal silliq sirtida joylashgan (rasmga qarang). Ikkita sharchaning massasi bir xil va m ga teng. Bu ikki sharchani bog'lovchi ip yoqib yuborildi. Uchinchi shar massasi M ning qanday qiymatlarida uchala sharcha bir xil to'g'ri chiziqda bo'lgan vaqt momentida massasi m bo'lgan sharlarning tezligi maksimal bo'ladi?




2.30-masalaga



2.31-masalaga


